

O‘zbekiston texnik jihatdan  
tartibga solish agentligi  
direktorining  
“ 3 ” iyul 2023 yil  
108k - sonli buyrug‘iga  
9-Ilova

## **TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH VA METROLOGIYADA DAVLAT NAZORATINI MUVOFIQLASHTIRISH BO‘LIMI NIZOMI**

### **1. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik deb ataladi) Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiyada davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda “bo‘lim” deb yuritiladi)ga qo‘yiladigan talablarni, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

2. Bo‘lim texnik jihatdan tartibga solish va metrologiyada davlat nazoratini muvofiqlashtirish faoliyati bo‘yicha o‘zining huquq doirasida umumiy boshqaruv, muvofiqlashtirish va nazoratni amalga oshiradi, yuqorida ko‘rsatilgan sohada ish olib borish umumiy qoidalarini belgilaydi.

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga va boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining qaror va farmoyishlari hamda Texnik jihatdan tartibga solish agentligining Nizomiga, buyruqlariga va qarorlariga shuningdek, mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga oliy texnik malumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida besh yil ishlagan mutaxassis tayinlanadi.

5. Bo‘lim xodimi lavozimida oliy texnik malumotga ega bo‘lgan va O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizimida kamida 3 yil ishlagan mutaxassis ishlashi mumkin.

### **2-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish va tugatish**

6. Bo‘lim bevosita Agentlik bosh direktor o‘rinbosariga bo‘ysunadi.

7. Bo‘limga Agentlik bosh direktor tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi.

8. Bo‘lim boshlig‘ining boshqa xodimlari Bosh direktor tomonidan lavozimlariga tayinlanadilar va lavozimidan ozod qilinadilar.

9. Bo‘lim va uning tarkibidagi bo‘lim xodimlari o‘z faoliyatini belgilangan tartibda tasdiqlangan lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq amalga oshiradilar.

10. Bo‘lim amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi va tugatiladi.

### **3-bob. Bo‘limning asosiy vazifa va funksiyalari**

11. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonunlarini amalda ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash;

Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

Metrologiyada davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etish;

12. Bo‘lim o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi, “Metrologiya to‘g‘risida”gi qonunlarini amalda ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash borasida

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablariga, metrologiya, sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo‘yicha agentlikning siyosatini olib boradi;

- agentlikning davlat nazorati bo‘yicha qonun hujjatlari, tashkiliy-uslubiy va normativ-texnik hujjatlarini ishlab chiqishini tashkil qiladi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me‘yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan davlat nazorati bo‘yicha tahliliy ma‘lumotlarni tayyorlaydi;

- texnik reglamentlarga, standartlarga rioya qilish, o‘lchovlar va sertifikatlash qoidalarining yagonaligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha nazorat organlari bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil qiladi;

- agentlik qoshidagi Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti (keyingi o‘rinlarda - Departament) tomonidan texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha olib boriladigan ishlarni tahlil qiladi;

- mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish sohasida huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va tegishli choralar ko‘rish bo‘yicha Departamentga topshiriqlar chiqaradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, metrologiya, sertifikatlashtirish qoidalari buzilishlari faktlarini tahlil qiladi va qonunchilik talablariga rioya etilishiga imkon beradigan mexanizmlarni ishlab chiqadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, metrologiya, sertifikatlashtirish qoidalarining buzilishga olib keladigan shart-sharoitlarni o‘rganishni tashkillashtiradi hamda oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- sohaga taalluqli qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilgan taqdirda sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qonunchilikda ko‘zda tutilgan javobgarlik to‘g‘risida tadbirkorlik sub’ektlariga tushuntirishlar, shuningdek, huquqbuzarlikni sodir etishga moyil bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarini ogohlantirish bo‘yicha olib borilgan ishlarni muvofiqlashtiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik buzilishlarini oldini olish va profilaktika qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ommaviy axborot vositalarida yoritib berish uchun Departamentga vakolat doirasida tegishli ko‘rsatmalar beradi;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi masalalarga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy

hujjatlarning mazmuni bilan aholi va tadbirkorlik sub'ektlarini o'z vaqtida tanishtirish va yetkazish bo'yicha Departamentga vakolat doirasida tegishli ko'rsatmalar beradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari, o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishi va to'g'riligi ta'minlanishi, majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga amal qilinishi yuzasidan davlat nazoratini tashkil etish va uning amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik hujjatlar talablari buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi masalalarda sanoat korxonalariga va tadbirkorlik sub'ektlariga har tomonlama ko'maklashadi;

- korxonalarda texnik reglament va standartlar talablariga rioya etilmaganlik holati yuzasidan korxonalar va tarmoq rahbarlariga taqdimnomalar kiritish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablari buzilishining oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazish reja-jadvallarni tahlil qiladi va bajarilishini monitoring qiladi;

- Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti tomonidan rasmiylashtirilgan aktlarni amaldagi qonunchilikka muvofiqligini tahlil qiladi va natijalari bo'yicha umumiy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritadi;

- Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departament faoliyatini nazorat qiladi.

2) Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ishlarni tashkil etish borasida:

- agentlik tizim tashkilotlarining iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- korxonalar va xaridorlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilinmasdan ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar bo'yicha kelib tushgan shikoyat va arizalarni ko'rib chiqadi;

- istemolchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha kelib tushgan e'tirozlarni umumlashtiradi va ko'rilgan choralar yuzasidan yuqori tashkilotlarga ma'lumot taqdim etadi;

Texnik reglament va standartlar talablariga rioya etmaganlik uchun Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlariga taqdimnomalar kiritish choralari ko'radi.

3) Metrologiyada davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish borasida:

- "Metrologiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni hamda metrologiya sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablarining bajarilishini ta'minlaydi;

- iste'molchilar huquqlarini noto'g'ri o'lchash natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- metrologiya masalalarida tadbirkorlik sub'ektlariga har tomonlama ko'maklashish;

- metrologiya sohasida qonun hujjatlari talablarining buzilishi oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

- o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini va o'lchashlarning to'g'riligini ta'minlash, muvofiqlikni baholash qoidalariga rioya etish yuzasidan davlat nazoratini tashkil etadi;

- amaldagi texnik reglamentlar, standartlar va qonunchilik talablariga nomuvofiq o'lchash vositalarining belgilangan tartibda savdodan chiqarish choralarini ko'radi.

- yangi qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

- o'lchashlar yagonaligini ta'minlash bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashadi;

- metrologiya tiziminining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni kiritadi, metrologiya tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan choralarni amalga oshiradi;

- o'lchash komplekslarining metrologik attestatsiyasi bo'yicha davlat reestrini yuritadi;

- metrologiya qoidalarini ishlab chiqishda ko'maklashish ishlarini tashkil etadi;

- metrologiya sohasida xalqaro amaliyotni doimiy ravishda o'rganadi, uning natijalari bo'yicha ilg'or amaliyotlarni joriy qilish bo'yicha takliflar kiritadi;

- metrologiya sohasida Xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (OIML), Sharqiy Yevropa Muassasalarining Xalqaro Metrologik tashkiloti (COOMET), Metrologiya bo'yicha ilmiy-texnik komissiyasi (NTKMetr), Modda va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari (RG SO), Standart axborotli ma'lumot (RG SSD), Vaqt va chastota (RG VCh) bo'yicha ishchi guruhlar, Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha Davlatlararo Kengash (MGS) hamda boshqa mamlakatlarning metrologik institutlari va bilan aloqalarni amalga oshiradi;

- "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va shaharlardagi bo'linmalari va Standartlar instituti tomonidan metrologiya tekshiruv natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan sertifikatlar yuritilishini muvofiqlashtiradi.

- "O'zbekiston milliy metrologiya instituti" davlat korxonasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va shaharlardagi bo'linmalari, metrologiya xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ular tomonidan metrologik me'yor va qoidalarga rioya qilinishi ustidan tizimli nazoratni ta'minlaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan metrologiyaga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlaydi;

- texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan metrologiya sohasidagi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etadi;

- metrologiya sohasida qonun hujjatlari buzilishining oldini olish va profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish grafiklari va rejalarini tasdiqlaydi;

- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiradi, huquqbuzarlikni keltirib chiqaradigan sabablarni va sharoitlarni aniqlaydi va o'rganadi, ularni bartaraf etish choralarini ko'radi;

- o'lashlarning yagona birlikda bo'lishini va o'lashlarning to'g'riligini ta'minlash, muvofiqlikni baholash qoidalarini va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa talablar joriy etilishini va ularga amal qilinishini nazorat qiladi;

- nazorat qilinadigan mahsulotlar ko'rsatkichlarini o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, tashkilotlarda realizatsiya qilinadigan va saqlanadigan (import bo'yicha olib kelinadigan va mahalliy ishlab chiqarilgan) mahsulotlarni nazorat xaridini o'tkazish yo'li bilan davlat nazoratini amalga oshiradi;

- tegishli choralar qabul qilish uchun ishlab chiqiladigan (shuningdek olib kiriladigan) va realizatsiya qilinadigan mahsulotlar (xizmatlar) sifati bo'yicha iste'molchilar e'tirozlarini o'rganadi;

- texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, metrologik qoidalar va muvofiqlikni baholash qoidalarini joriy qilish va ularga rioya qilish nazorati jarayonida aniqlangan qonunchilik buzilishini bartaraf etish chorasini ko'radi;

- texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, metrologik qoidalar va muvofiqlikni baholash qoidalar talablariga nomuvofiq mahsulotlarni (xizmatlar) realizatsiya qilish holatlarini aniqlaydi;

- qonunchilikka muvofiq chora ko'rish uchun sud yoki boshqa organlarga da'vo bilan murojaat etish uchun qaror qabul qiladi.

- yagona o'lashlar birligi va to'g'riligini ta'minlash ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi, jumladan:

- belgilangan kattalik birliklarini qo'llash to'g'riligi, o'lash va sinov vositalari holati, ularni tayyorlash, saqlash, ta'mirlash, qiyoslash va ekspluatatsiya holatini;

- o'lashlar va sinovlarni bajarish uslublarini qo'llash to'g'riligini;

- O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarining qo'llanilishga ruxsat berilgan foydalanilayotgan kattalik birliklariga muvofiqligini;

- yagona o'lash birligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish sohasida amalga oshiriluvchi o'lashlar uchun qo'yiladigan majburiy talablarga rioya qilishni;

- yagona o'lash birligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish sohasiga tegishli bo'lgan o'lashlarni amalga oshirish va ular uchun belgilangan majburiy talablarga rioya etilishini.

13. Bo'lim va uning xodimlariga ushbu Nizomda yoki boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **4-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatlari**

14. Bo'lim quyidagi huquqlarga ega:

agentlikning barcha bo'linmalaridan va tizim tashkilotlaridan o'z faoliyatini bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olish;

qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiya qilish hamda mahsulotlar sifatini boshqarish masalalari bo'yicha qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish hamda ular yuzasidan o'z vakolati doirasida tegishli xulosalar berish;

Agentlikning bo'linmalari va Davlat nazorati Departamenti mutaxassislarini turli tadbirlar, istiqbolli va yillik rejalar, tahliliy hisobotlar va boshqa hujjatlarni tayyorlashga o'rnatilgan tartibda jalb etish;

Departament faoliyatini bo'lim vakolati doirasida tahlil qilish va muvofiqlashtirish;

Departamentning texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonun buzilishlarini oldini olish va profilaktika qilishni amalga oshirishni bo'lim tomonidan vakolati doirasida tahlil qilish va muvofiqlashtirish;

Departamentning texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya masalalarida tadbirkorlik sub'ektlariga har tomonlama yordam ko'rsatilishini bo'lim tomonidan vakolat doirasida tahlil qilish va muvofiqlashtirish;

davlat nazorati natijalarini tahlil qilish asosida mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish hamda sifat tizimlari takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar kiritish;

nazorat qilinayotgan mahsulotlar ko'rsatkichlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirish maqsadida sotish va saqlash korxonalarida nazorat xaridini o'tkazish yo'li bilan mahalliy mahsulotlar sifatining davlat nazoratini amalga oshirish uchun tegishli tavsiyalar berish;

texnik reglamentlar, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish qoidalari buzganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javgobgarlik choralari qo'llash yuzasidan tegishli tavsiyalar berish;

texnik jihatdan tariga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida qonun hujjatlarining buzilish alomatlari aniqlangan holatlarda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan zarur hujjatlar va boshqa axboratlarni so'rash;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi qonunchilik buzilishlarini bartaraf etish va (yoki) ularning oqibatlarini bartaraf etish, dastlabki holatlarni tiklash to'g'risida qonunchilikda belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, davlat idoralariga, ularning mansabdor shaxslariga bajarish uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni berish, shuningdek, berilgan ko'rsatmalarning bajarilishini nazorat qilish yuzasidan Departamentga tegishli topshiriqlar berish;

davlat boshqaruv organlari, xo'jalik birlashmalari, korxonalar, tashkilot va respublika jamoa tashkilotlaridan o'lchovlar birliligini ta'minlash Davlat tizimi standartlari hamda metrologik me'yori va qoidalarni joriy qilish va ularga rioya qilish masalalari bo'yicha ma'lumot va materiallar olish;

O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, assotsiatsiya, korxonalar va tashkilotlari bilan kelishilgan holda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi masalalarni hal qilish uchun mutaxassislarni jalb qilish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasida xalqaro tashkilot, vazirlik, idora, assotsiatsiya, korxonalar va tashkilotlar bilan agentlik rahbariyati orqali yozishmalarni olib borish;

bo'lim xodimlari tomonidan mehnat qonunchiligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

ichki mehnat tartibini buzgan, rioya qilmagan xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasini ko'rish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritish;

bo'lim xodimlari va Departament faoliyatidan kelib chiqib, ularni rag'batlantirish yoki tegishli chora ko'rish bo'yicha rahbariyatga takliflar kiritish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparatida ko'rib chiqiladigan masalalar, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tahlil qilish va ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan materiallar va ma'lumotlarni Texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlaridan so'rash va olish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligida ko'rib chiqiladigan masalalarni ishlab chiqish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uchun zarurat bo'lganda, Texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari vakillarini belgilangan tartibda jalb qilish hamda ekspert va ishchi guruhlarni tashkil etish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari hamda vakillari ishtirokida belgilangan tartibda yig'ilishlar o'tkazish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlariga jadal hal qilinishi talab etiladigan va Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklangan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish bilan bog'liq masalalar yuzasidan belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, shuningdek Texnik jihatdan tartibga solish agentligi hujjat va topshiriqlarini Texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini belgilangan tartibda o'rganish;

qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va ular yuzasidan tegishli takliflar berish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligining hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlariga, xalqaro metrologik tashkilotlarga, xorijiy mamlakatlarning metrologik institutlariga, o'lchash vositalarini ishlab chiqaruvchi markaz va korxonalariga o'z xodimlarini safarbar qilish, o'z faoliyati bo'yicha boshqa mamlakatlardagi hamkorlarni qabul qilish;

metrologiya masalalari bo'yicha respublika vazirlik, idora va tashkilotlar, xalqaro tashkilot, metrologik institutlar bilan Texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbariyati orqali yozishmalar olib borish;

davlat nazoratidagi mahsulotlarni (xizmatlarni) olib kiruvchi va ishlab chiqaruvchi hamda saqlovchi va realizatsiya qiluvchi tashkilotlarning rahbarlari va mutaxassislaridan davlat nazoratini o'tkazish masalalari bilan bog'liq bo'lgan zarur hujjatlar va tushuntirishlar olish;

mahsulotlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi xujjatlarni elektron dasturlar orqali nazoratini amalga oshirish;

savdo rastalarida realizatsiya qilinayotgan xavflilik darajasi yuqori bo'lgan ayrim turdagi import mahsulotlar amaldagi texnik reglament, standartlar va qonunchilik xujjatlari talablariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda, ushbu mahsulotlarni davlat ro'yxatidan chiqarish yuzasidan vakolatli idoraga taklif kiritish;

zarur holatlarda, mahsulotlar (xizmatlar)ni olib keluvchi va ishlab chiqaradigan, shuningdek, saqlashni va realizatsiyasini amalga oshiruvchi davlat nazoratidagi tashkilotlar rahbarlariga qonun hujjatlari buzilishini o'z muddatida bartaraf etish yuzasidan Departament va uning xududiy bo'limlari tomonidan yozma ogohlantirish berish va taqdimnoma kiritish;

texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida sodir etilgan xuquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga ogohlantirish yuborish, xuquqbuzarlik ogohlantirishdan so'ng birinchi marta sodir

etilganda realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 50 foizigacha miqdorda moliyaviy jarima, ushbu xuquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab bir yil davomida takroran sodir etilganda realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 100 foizigacha miqdorda moliyaviy jarima qo'llash bo'yicha sudga murojaat qilish;

ishlab chiqaruvchi, (sotuvchidan) mahsulotlarning texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarni va muvofiqlik sertifikatlarini yoki ularning nusxasi hamda muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyaning yoki muvofiqlik sertifikatlarining ro'yxatga olish raqamini talab qilish;

muvofiqlik sertifikatlarini yoki muvofiqlik to'g'risidagi deklaratsiyalarni bergan sertifikatlashtirish organlariga ularning amal qilishini to'xtatib turish va tugatish zarurligi to'g'risida taqdimnoma kiritish;

mahsulotlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish bosqichlarida, ishlab chiqarishga tayyorlashda, realizatsiya qilishda (yetkazib berish, sotish), foydalanishda (ekspluatatsiya), saqlashda, transportirovkasida va utilizatsiyasida texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya, sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash sohasidagi normativ hujjatlarning majburiy talablari buzilish holatlari aniqlanganda, ularni bartaraf etish to'g'risida ogohlantirish berish;

davlat sinovidan, metrologik attestatsiyadan o'tmagan, qiyoslanmagan o'lchash vositalarini qo'llash va muomalaga chiqarilishini o'n ish kunigacha to'xtatib turish, zarur bo'lgan holatlarda shunga o'xshash vositalarni muomaladan chiqarib tashlash to'g'risidagi qarorni qabul qilish.

15. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

bo'lim o'ziga yuklatilgan ishlarni amalga oshirishda mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

agentlikning tashkiliy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan davlat nazoratiga oid O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari, farmoyishlari, Hukumat qarorlari bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

agentlik tomonidan davlat nazorati sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish;

hududiy bo'linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari bilan birgalikda Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuklangan vazifa va funksiyalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

texnik jihatdan tartibga solish agentligining faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlash bo'yicha monitoring olib borish;

texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan metrologiya sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritiladigan hujjatlarning sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini va ularning ekspertizadan o'tkazilishini tashkil etish;

metrologiyani rivojlantirish bo'yicha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ulardagi muammoli masalalarni hal qilish bo'yicha turli dasturlarning Texnik jihatdan



tartibga solish agentligining hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini tashkil etish;

o‘lchashlarning yagona birlikda bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, tashkilotlarning mutaxassislarini jalb etish va zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni olish;

o‘ramlarga qadoqlangan tovarlar miqdori ustidan davlat metrologiya nazoratini amalga oshirish choralarini ko‘rish;

fuqarolar va tadbirkorlik sub‘ektlarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilinishi va rioya etilishini ta‘minlanish;

davlat nazorati bo‘yicha tadbirlar jarayonida, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha tushuntirish ishlarini o‘tkazishga, mavjud bo‘lgan texnik reglamentlar va standartlashtirishga doir normativ hujjatlar to‘g‘risida ma‘lumotlar berish;

davlat nazorati bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish tartibiga rioya qilish va ushbu tadbirlar natijalarini qonunchilikka muvofiq rasmiylashtirish.

### **5-bob. Javobgarligi**

16. Bo‘lim boshlig‘i va uning barcha xodimlari ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan funksiyalarning o‘z vaqtida bajarilishi, taqdim etilayotgan va umumlashtirgan malumotnomalarining haqqoniyligi, rejalar va rahbariyat topshiriqlari hamda ichki mehnat tartib qoidalarining bajarilishi, ijro intizomi, mehnat muhofazasi, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishga shaxsan javobgar hisoblanadi.

17. Bo‘lim xodimlari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarmaganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

### **6-bob. Hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar bilan hamkorlik qilish tartibi**

18. Texnik jihatdan tartibga solish va metrologiyada davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo‘limi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlari va ularning hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikda ish olib borib, o‘z faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha:

- topshiriqlarni yetkazadi hamda ularning bajarilish holatini nazorat qilib boradi;

- Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlari va ularning hududiy bo‘linmalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri faoliyati masalalari bo‘yicha so‘rovnomalarni jo‘natadi hamda ularning ijrosini nazorat qiladi;

- ularning faoliyatini tekshiradi va o‘rganadi, amaliyotini umumlashtiradi, ularni takomillashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqadi va qabul qiladi;

- Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlari va ularning hududiy bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish va natijalari to‘g‘risida hisobot va axborot materiallari, statistik va boshqa ma‘lumotlarni o‘rganishni tashkil etadi;

- ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘radi;

- Texnik jihatdan tartibga solish agentligining tizim tashkilotlari va ularning hududiy bo‘linmalaridan kelib tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi;

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishini tashkil etadi, ulardan kelib tushgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqadi.